



UDK 316.356.2:37.017.4

Oybek NURMATOV,
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi,
Qo'qon universiteti Andijon filiali, Andijon O'zbekiston
E-mail: oybeknurmator.tarixuz@gmail.com

Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti, PhD R. Haidarov taqrizi asosida

SOCIO-PHILOSOPHICAL MECHANISMS AND PRACTICAL DIRECTIONS OF FORMING FAMILY RESPONSIBILITY IN YOUNG MEN

Annotation

This article analyzes the process of forming family responsibility in young men based on a socio-philosophical approach. The study highlights the essence of family responsibility, the social factors influencing its formation, as well as philosophical views and moral-normative foundations. Furthermore, practical directions aimed at increasing young men's readiness for family life in modern society, along with the role of the education and upbringing system, are examined. The article scientifically substantiates the necessity of strengthening the social and spiritual responsibility of young men in ensuring family stability.

Key words: family responsibility, young men, socio-philosophical mechanisms, moral values, upbringing, education, family stability.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ МЕХАНИЗМЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ ФОРМИРОВАНИЯ СЕМЕЙНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ У ЮНОШЕЙ

Аннотация

В данной статье процесс формирования семейной ответственности у юношей анализируется на основе социально-философского подхода. В исследовании раскрываются сущность семейной ответственности, социальные факторы, влияющие на её формирование, а также философские взгляды и нравственно-нормативные основы. Кроме того, рассматриваются практические направления, направленные на повышение готовности юношей к семейной жизни в условиях современного общества, а также роль системы воспитания и образования. В статье научно обосновывается необходимость укрепления социальной и духовной ответственности юношей в обеспечении стабильности семьи.

Ключевые слова: семейная ответственность, юноши, социально-философские механизмы, нравственные ценности, воспитание, образование, стабильность семьи.

YIGITLARDA OILAVIY MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOYIY-FALSAFIY MEXANIZMLARI VA AMALIY YO'NALISHLARI

Аннотация

Ushbu maqolada yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaviy mas'uliyatning mohiyati, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillar, falsafiy qarashlar hamda axloqiy-me'yoriy asoslar yoritib beriladi. Shuningdek, zamonaviy jamiyat sharoitida yigitlarning oilaviy hayotga tayyorgarligini oshirishga qaratilgan amaliy yo'nalishlar, tarbiya va ta'lim tizimining roli tahlil etiladi. Maqolada oilaviy barqarorlikni ta'minlashda yigitlarning ijtimoiy va ma'naviy mas'uliyatini mustahkamlash zarurligi ilmiy asosda bayon etiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy mas'uliyat, yigitlar, ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar, axloqiy qadriyatlar, tarbiya, ta'lim, oila barqarorligi.

Kirish. Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar jarayonida jamiyatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan oila institutining mustahkamligi hamda undagi o'zaro mas'uliyatli munosabatlar darajasiga bog'liqdir. "Oila insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ijtimoiy tizimning asosiy tayanchi bo'lib, nafaqat biologik davomiylikni ta'minlovchi muhit, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, dunyoqarashi shakllanishi va axloqiy qadriyatlarni o'zlashtirishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi hamda shaxsning ijtimoiy yetuklik darajasini belgilaydi [1]." Shu jihatdan qaralganda, oilaning barqarorligi jamiyatning ijtimoiy muvozanati, ma'naviy salohiyati hamda kelajak avlod tarbiyasining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi va bu jarayon ijtimoiy taraqqiyot bilan uzviy bog'liqdir [2]."

Mamlakatimiz ravnaqi va ertangi kunning munosib egalari tarbiyalash ham yuqorida tilga olingan masalalarga jiddiy e'tibor qaratilishi, hamda oila institutlarining barqaror rivojlanish tendensiyalarini o'zida aks ettirishi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash va uni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jumladan, "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida oila jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida e'tirof etilib, uning barqarorligini ta'minlash davlatning muhim vazifalari qatoriga kiritilgan [3]". Ushbu normativ-huquqiy yondashuv

jamiyatda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash hamda ularda mas'uliyat hissini rivojlantirish zarurligini yanada kuchaytiradi.

Mazkur muammoning dolzarbligi shundaki, yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish nafaqat alohida oila barqarorligini ta'minlaydi, balki jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni qaror toptirish, demografik barqarorlikni mustahkamlash va farzandlar tarbiyasining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi, bu esa jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi [4]. Shu bois ushbu masalani ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan chuqur o'rganish, uning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mazkur muammo yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish masalasi turli fanlar doirasida – sotsiologiya, pedagogika, psixologiya va falsafa nuqtai nazaridan keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar oilaning ijtimoiy mohiyati, uning funksiyalari hamda shaxs tarbiyasidagi o'rni bilan bog'liq masalalarni chuqur yoritib beradi.

Xususan, "Z.G'ofurov o'zining ilmiy izlanishlarida oila institutini sotsiologik jihatdan tahlil qilib, uning jamiyatdagi asosiy funksiyalarini – ijtimoiylashuv, tarbiyaviy, iqtisodiy va kommunikativ vazifalarini asoslab beradi. Muallif oila shaxs

kamolotining boshlang'ich ijtimoiy muhiti ekanligini ta'kidlab, aynan shu muhitda shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va mas'uliyat hissi shakllanishini qayd etadi [5]". Bu yondashuv yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirishni oilaviy muhit bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

"N.Sodiqova oilaviy tarbiya muammolarini o'rganar ekan, yoshlar tarbiyasida ota-onaning shaxsiy namunasi va ma'naviy ta'siri hal qiluvchi omil ekanligini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, oiladagi muhit, ota-onaning o'zaro munosabatlari hamda farzandlarga nisbatan yondashuvi yoshlarning kelajakdagi oilaviy hayotga bo'lgan munosabatini bevosita shakllantiradi [6]". Bu esa yigitlarda mas'uliyat hissini rivojlantirishda oilaviy tarbiyaning ustuvor o'rin tutishini anglatadi.

"M.Abdullayeva oila va axloqiy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilib, mas'uliyatni shaxsning muhim axloqiy fazilati sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, oilaviy mas'uliyat faqat tashqi majburiyat emas, balki shaxsning ichki e'tiqodi, vijdoniy qarashlari va axloqiy ongiga asoslangan holda shakllanadi [7]". Ushbu yondashuv oilaviy mas'uliyatni shakllantirishda axloqiy tarbiyaning markaziy o'rin tutishini ilmiy jihatdan asoslaydi.

"H.Alimuhamedov esa milliy qadriyatlar va an'analar asosida tarbiya jarayonining samaradorligini yoritib, yoshlar ongida ijtimoiy va oilaviy mas'uliyatni shakllantirishda milliy-madaniy omillarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [8]". Muallifning fikricha, milliy qadriyatlar tizimi yoshlarning ijtimoiy xulq-atvori va axloqiy qarashlarini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida ham yoshlarni ma'naviy yetuk va mas'uliyatli etib tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" asarida yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularda fuqarolik mas'uliyati bilan bir qatorda oilaviy mas'uliyatni ham rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [9]". Ushbu konseptual yondashuv yoshlar tarbiyasida ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlar ustuvorligini ta'minlash zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator zamonaviy ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish, pedagogik kuzatuv hamda analitik tahlil metodlari tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qildi. Tizimli yondashuv asosida yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni yaxlit ijtimoiy hodisa sifatida o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali mazkur jarayonning asosiy tarkibiy qismlari – oila, ta'lim tizimi, mahalla, ijtimoiy muhit va ma'naviy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ta'sir mexanizmlari tahlil qilindi. Bu esa muammoni alohida omillar doirasida emas, balki kompleks tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini berdi.

Qiyosiy tahlil metodi yordamida turli ilmiy manbalar, nazariy qarashlar va yondashuvlar o'zaro taqqoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Natijada oilaviy mas'uliyatni shakllantirishga oid mavjud ilmiy qarashlarning rivojlanish tendensiyalari va konseptual asoslari yoritib berildi.

Ijtimoiy-falsafiy umumlashtirish metodi orqali olingan natijalar nazariy jihatdan umumlashtirilib, yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu metod tadqiqot natijalarini keng ijtimoiy va falsafiy kontekstda talqin etish imkonini berdi.

Pedagogik kuzatuv metodi esa yoshlar muhitida oilaviy qadriyatlar va mas'uliyatga bo'lgan munosabatni bevosita o'rganish, real ijtimoiy holatlarni tahlil qilish hamda amaliy xulosalar chiqarishda muhim ahamiyat kasb etdi. Kuzatuv natijalari asosida yigitlarning oilaviy hayotga tayyorgarlik darajasi, ularning ijtimoiy qarashlari va axloqiy yo'nalishlari haqida muayyan empirik ma'lumotlar olindi. Shuningdek, analitik tahlil metodi yordamida tadqiqot davomida to'plangan nazariy va amaliy ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda sabab-oqibat aloqalari aniqlashtirildi. Bu esa yakuniy ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalarni asoslashga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. Oilaviy mas'uliyat shaxsning oila oldidagi burchlarini ongli ravishda anglash, ularni izchil bajarish hamda oila farovonligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan faol ijtimoiy pozitsiyasini ifodalaydi. Mazkur tushuncha nafaqat individual axloqiy sifat, balki jamiyat tomonidan shakllantiriladigan ijtimoiy ongning muhim ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi, hamda ijtimoiy munosabatlar tizimida muhim o'rin egallaydi [10]. Shu jihatdan oilaviy mas'uliyat jamiyatdagi axloqiy me'yorlar, ijtimoiy qadriyatlar va madaniy an'analar tizimi bilan uzviy bog'liqdir.

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, oilaviy mas'uliyat shaxs va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning muhim elementi hisoblanadi. Oila orqali shaxs ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi, ijtimoiy rollarni bajarishga o'rganadi va jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me'yorlarni ichkilashtiradi. Natijada oilaviy mas'uliyat shaxsning ijtimoiy yetukligi va ma'naviy barkamolligining muhim mezoniga aylanadi.

Falsafiy jihatdan mas'uliyat erkinlik va majburiyat o'rtasidagi dialektik birlik sifatida talqin etiladi. Ya'ni shaxs o'zining erkin tanlovi asosida muayyan majburiyatlarni qabul qiladi va ularni bajarish orqali o'zining ijtimoiy mohiyatini namoyon etadi. Shu nuqtai nazardan, yigitlarning oilaviy mas'uliyati ularning nikohga, oilaviy hayotga va ota-onalik vazifalariga ongli va ixtiyoriy yondashuvi bilan belgilanadi. Agar mas'uliyat tashqi bosim natijasida emas, balki ichki e'tiqod va axloqiy ong asosida shakllansa, u barqaror va samarali bo'ladi.

Yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, u turli ijtimoiy institutlar va omillarning o'zaro ta'siri asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy mexanizmlar orqali amalga oshadi:

Oila muhiti. Oila mas'uliyat hissining shakllanishidagi birlamchi va eng muhim ijtimoiy muhit hisoblanadi. "Oiladagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, mehnat taqsimoti va tarbiyaviy yondashuv yigitlarning kelajakdagi oilaviy xulq-atvorini belgilaydi. Ayniqsa, ota-onaning shaxsiy namunasi va ularning o'zaro munosabatlari yoshlar ongida mas'uliyatli oilaviy modelni shakllantiradi [11]".

Ta'lim tizimi. Ta'lim muassasalari yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashda muhim ijtimoiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki axloqiy qadriyatlarini singdirish, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois ta'lim tizimida oilaviy hayotga tayyorgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilishi zarur.

Ijtimoiy qadriyatlar tizimi. "Milliy an'analar, urf-odatlar va ma'naviy qadriyatlar yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu qadriyatlar orqali oila muqaddasligi, ota-onaga hurmat, farzand oldidagi burch kabi tushunchalar yoshlar ongiga singdiriladi [12]".

Ommaviy axborot vositalari va internet. Zamonaviy axborot makoni yoshlarning dunyoqarashiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biridir. Ijtimoiy mazmundagi axborotlar yigitlarda mas'uliyatli oilaviy modelni shakllantirsa, aksincha, noto'g'ri talqin etilgan "erkinlik" tushunchasi mas'uliyat hissining susayishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur mexanizmlar o'zaro uyg'unlikda faoliyat yuritgan taqdirdagina yigitlarda barqaror oilaviy mas'uliyat shakllanadi. Aks holda, ularning ta'siri fragmentar xarakter kasb etib, kutilgan natijani bermaydi. Yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish amaliy jihatdan tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon quyidagi ustuvor yo'nalishlar orqali samarali amalga oshiriladi:

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni kuchaytirish. Yoshlar ongida oila qadriyatlarini mustahkamlash, ularni ijtimoiy va axloqiy jihatdan anglash darajasini oshirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim dasturlarini takomillashtirish. Ta'lim tizimiga oilaviy hayotga tayyorlovchi maxsus kurs va fanlarni joriy etish orqali yoshlarning ongli tayyorgarligini shakllantirish mumkin.

Psixologik-pedagogik treninglar. Yigitlarda muloqot madaniyati, muammolarni hal etish ko'nikmalari va mas'uliyatli xulq-atvorni rivojlantirishga qaratilgan treninglar muhim samara beradi.

Milliy qadriyatlarga asoslangan tarbiya. "An'anaviy oilaviy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarning oila institutiga nisbatan hurmat va mas'uliyat hissini kuchaytirish mumkin [13]".

Davlat siyosati doirasida qo'llab-quvvatlash. "Yosh oilalarni rag'batlantirish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash hamda oilaviy qadriyatlarni targ'ib qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [14]".

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirish ko'p bosqichli va ko'p omilli jarayon bo'lib, u ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy omillarning o'zaro uyg'unligi asosida yuzaga keladi. Ushbu jarayonda tashqi ijtimoiy ta'sirlar bilan bir qatorda shaxsning ichki axloqiy qadriyatlari ham muhim rol o'ynaydi.

Ayniqsa, oiladagi tarbiya va jamiyatda hukmron bo'lgan qadriyatlar tizimi yigitlarning oilaviy hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar yoshlar sog'lom oilaviy muhitda voyaga yetsa va ijobiy ijtimoiy namunalarga ega bo'lsa, ularda mas'uliyat hissi barqaror shakllanadi. Aksincha, ijtimoiy va ma'naviy muhitdagi nomutanosiblik mas'uliyatning sustlashishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy institutlar o'rtasidagi hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi holatlarida oilaviy mas'uliyatni shakllantirish jarayoni samaradorligi pasayishini ko'rsatdi. Shu bois mazkur jarayonni kompleks yondashuv asosida tashkil etish, ya'ni oila, ta'lim tizimi va jamoatchilik institutlari o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon faqat individual

xususiyatlar bilan cheklanib qolmay, balki oila muhiti, ta'lim tizimi, ijtimoiy institutlar va milliy qadriyatlar tizimining o'zaro uyg'un ta'siri asosida shakllanishi aniqlandi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oilaviy mas'uliyatning barqaror shakllanishida eng muhim omillardan biri - bu shaxsning ichki axloqiy ongidir. Agar yigitlarda mas'uliyat hissi tashqi majburlov natijasida emas, balki ichki e'tiqod, vijdoniy javobgarlik va ijtimoiy burchni anglash asosida shakllansa, u uzoq muddatli va samarali bo'ladi, hamda shaxsning barqaror ijtimoiy xulq-atvorini shakllantiradi [15]. Shu bois oilaviy mas'uliyatni rivojlantirishda axloqiy tarbiya, shaxsiy namuna va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash mexanizmlariga ustuvor ahamiyat berish zarur. Shuningdek, tadqiqot yigitlarda oilaviy mas'uliyatni shakllantirishda oila muhitining hal qiluvchi rol o'ynashini ko'rsatdi. Ota-onaning o'zaro hurmatga asoslangan munosabati, mehnat taqsimoti va farzandlarga bo'lgan e'tibor darajasi yoshlarning kelajakdagi oilaviy hayotga munosabatini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ta'lim tizimi va jamoatchilik institutlari ushbu jarayonni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy mexanizm vazifasini bajaradi.

Zamonaviy globallashtirish sharoitida yoshlarning ongiga turli xil g'oyalari va qadriyatlar ta'sir ko'rsatayotganligi sababli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga asoslangan tarbiya tizimini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu esa yigitlarda oila muqaddasligi, ota-onalik burchi va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
3. G'ofurov Z. Oila sotsiologiyasi. – Toshkent: Universitet, 2016.
4. Sodiqova N. Oilaviy tarbiya muammolari. – Toshkent: Sharq, 2020.
5. Abdullayeva M. Axloq va oila munosabatlari. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Alimuhamedov H. Milliy qadriyatlar va tarbiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
7. Zamonaviy tadqiqotlar: Yigitlar va oilaviy qadriyatlar bo'yicha ilmiy maqolalar (2021–2024). – Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
9. To'rayev B. Yoshlar tarbiyasida ijtimoiy omillar. – Toshkent: Fan, 2018.
10. Qodirov A. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017.
11. Rasulov A. Shaxs kamolotida oila roli. – Toshkent: Ma'naviyat, 2016.
12. Ergashev I. Ijtimoiy falsafa asoslari. – Toshkent: Universitet, 2019.
13. Xudoyberdiyev D. Yoshlar ijtimoiylashuvi va qadriyatlar tizimi. – Toshkent: Fan, 2020.
14. Musurmonova O. Oila pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
15. Sharipov Sh. Ma'naviy tarbiya va zamonaviy yondashuvlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2021.